

## O'ZBEKISTON SHANARLARIDA TURIZMNING AHAMIYATI

Yuldasheva Dilshoda Hoshimovna

QDPI o'qituvchisi, Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi o'qituvchisi  
bk. ru :yuidasheva dilshoda @ bk. ru. +998 97 555 5810

### **Annotatsiya:**

Maqola O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, avvalo ko'hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Toshkent Samarqand kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda jahon aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimgi tarixiy yodgorliklar beqiyos ko'p. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada, Respublikamizni Toshkent, Samarqand kabi tarixiy shaharlar va ularning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** Turizm, jahon merosi, arxitektura yodgorliklari, tarixiy shaharlar, buyuk ipak yo'li, sharqning javohirlari, jahon merosi.

### **Аннотация:**

Статья о развитии в Узбекистане туризма и его продвижения на новые высоты. Прежде всего, значительны богатые древними культурными и архитектурными памятниками города, как Ташкент Самарканд. В этих городах множество древних исторических памятников, которые поражают и восхищают всё население мира. С этой точки зрения, данная статья об исторических и архитектурных памятников.

### **Annotation:**

The article focuses on the development of tourism in Uzbekistan and the elevation of it to a new level, particularly in cities like Tashkent and Samarkand, which are rich in ancient

**Key words:** Tourism, world heritage, architectural monuments, historical cities, great silk road, eastern pearls, world heritage.

### **Turizmni rivojlantirishdagi tarixiy shaharlar**

O'zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Ichan qal'a, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, qadimiy Samarqandning tarixiy yodgorliklari YUNESKO ning «Jahon merosi» deb nomlangan ro'yxatiga, Boysun tumani aholisining folklori «Jahon nomoddiy merosi xazinasini» ro'yxatiga kiritilgan.

Qadimiy zamonlardan boshlab, O'zbekiston jahonning ko'plab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlikka kirishib kelgan. Savdo karvonlari orqali Sharq va G'arbni

bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ham aynan O'zbekistondan o'tgan, O'zbekiston uning eng muhim markazlaridan biri hisoblangan. Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan xilma-xil mollardan tashqari turli madaniyatlar, an'analar, hunarlar va dinlar ham tarqalgan. Ma'naviy qadriyatlar bilan almashinuvlar amalga oshirilgan. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi jahon madaniyatining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan: Buyuk Ipak Yo'li uzoq mamlakatlardagi yangi ixtirolar, ilm-fan yutuqlari va madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni qo'lga kiritish imkoniyatini berganki, bu xalqaro aloqalarda faol ishtirok etayotgan barcha davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy yuksalishiga sabab bo'lgan.

Hozirgi kunda turizmning ko'plab turlari mavjud. Sayohat masofasining uzoqligiga qarab turizmning mahalliy (masalan, fuqorolarimizning O'zbekiston bo'ylab qiluvchi sayohatlari) va xalqaro (O'zbekiston fuqorolarining chet ellarga chiqib kelishlari va xorijiy turistlarning O'zbekistonga kelib ketishlari) shakllari mavjud.

Sayohat maqsadlariga qarab turizmning ko'ngilochar (masalan, Toshkentdagi Akvaparkka kelib ketish), sog'lomlashtirish (sanatoriylarda sog'liqni tiklash yoki mustahkamlash), madaniy-oqartuv (ekskursiyalarga chiqish, muzey va konsertlarga kirish) va sport (stadionga futbol o'yinini tomosha qilish uchun kelish, tog'da alpinizm bilan shug'ullanish) kabi turlari mavjud.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, avvalo ko'hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda jahon aholini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimgi tarixiy yodgorliklar beqiyos ko'p. Er yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish orzusida yashaydilar. Ko'p mamlakatlarda O'zbekiston o'zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir. O'zbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini bemaolol «Sharqning javohirlari» deb atash mumkin.

## **Toshkent**

Toshkentni 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qildi. O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi misilsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazavor bo'ldi. Toshkentda «Jahon madaniyati yodgorliklari» ro'yxatiga kiritilgan Usmon qur'oni hamda Beruniy kutubxonasi saqlanmoqda.

Toshkent-Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlaridan biri – O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Toshkent haqidagi eng dastlabki ma'lumotlar eramizdan oddingi II asrdagi qadimgi Xitoy solnomalarida uchraydi, Xitoyda u Yuni deb nomlangan bo'lsa, Eron shohi Shopur I ning eramizdan oldingi yozuvlarida Toshkent atroflari Choch deb atalgan. Choch turli mamlakatlarning oltin, qimmatbaho toshlar, ziravorlar va ajoyib otlar eksport qilinadigan yo'llari chorrahasida joylashgan. Hozirgi kunda Toshkent o'zida O'zbekistonning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamonaviy shahri bo'lib, ko'plab muzeylar



mavjud. Masalan, Tasviriy san'at muzeyi haykallar, rasmlar va hunarmandchilik mahsulotlarining Markaziy Osiyodagi eng yirik to'plamiga ega. O'zbekiston Amaliy San'at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlarga ega. Tarixiy Eski Juva - shaharning eng qadimiy bozorlaridan biri, unda hozir ham oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib mahsulotlarigacha barchasini topish mumkin. Toshkent metrosi ko'pchilikka ma'lum bo'lgan zamonaviy arxitektura durdonalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Toshkentning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

Ko'kaldosh madrasasi, Kaffol Shoshiy maqbarasi, Xazrati Imom arxitektura majmuasi, Abulqosim madrasasi, Baroqxon madrasasi, Jome' masjidi, Zamonaviy arxitektura durdonasi sanalgan Amir Temur muzeyi, Amir Temur hiyoboni, Mustaqillik maydoni, Xalqlar Do'stligi maydoni, Jasorat monumenti, Xasti Imom maydoni kabi arxitektura yodgorliklari mavjuddir. Tarixiy shaharlardan yana biri Samarqand esa, o'zining noz-ne'matlari, tabiati, boy ma'naviy merosi, betakror tarixi, olamshumul me'moriy obidalar bilan butun dunyo jamoatchiligining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelayotgan «sayqali ro'yi zamindir». So'g'diyona va Turon davlatlarining ulug'vor an'analari, dunyoviy sivilizatsiyaning eng muhim bosqichlari «Er yuzining yorqin nuqtasi» bo'lgan bu shaharning tarixi va madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. Dunyoning e'tiborli sarmoyadorlari, rivojlangan mamlakatlarning mashhur tijoratchi va bankirlari, xalqaro tashkilot rahbarlari, iqtisodchi va siyosatchilari, san'ashunoslarining nigohi bugun Samarqandga qaratilganligi bejiz emas. Bu esa Samarqand O'zbekistonning yirik, fan va madaniyat markazi sifatidagi mavqei tobora oshib borayotganidan, mamlakatning gullab-yashnashi va ravnaqi uchun muhim hissa qo'shayotganidan dalolat beradi.

Jahon bankinging prezidenti bo'lgan Jeyms D.Uolfenson Samarqandga tashrif buyurganida «Keyingi 40 yil davomida men kariyb butun dunyoni kezib chiqdim, biroq, Samarqanddek shaharni hech joyda ko'rmadim», deb o'z qalb so'zlarini aytgan edi. Amerikadan kelgan sayyohlarning fikricha, «dunyoda bittagina Parij va bittagina Samarqand mavjud». Ommaviy fransuz jurnallaridan birining e'tirof etishicha: «Samarqand tasavvurni junbo'shga keltiradigan shahar bo'lib borayapti. Ko'zingizni yumib muloyim ohangda «Samarqand» so'zini talaffuz qilsangiz, xuddi ertaklardagidek tasavvuringizda go'zal va sehrlilik manzaralar oqimi paydo bo'ladi». Bu o'rinda uzoq tarix sahifalarida qoldirilgan ushbu satrlarni ham eslash joizdir:

«Bu shahar va uning atrofidagi zamin shunchalik boy va farovonki, bundan hayratga tushmasdan bo'lmaydi. Ehtimol shuning uchundir u Samarqand deya atalgan».

Samarqandliklar o'zlarining zaminlari kabi saxiy, bobolari kabi sobitqadam, hissiyotli, tarixlari misol betakror va noyob, tinchliksevar va saxovatlidir. Ularning bu noyob fazilatlarining tengi yo'q, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan barcha davlat rahbarlari, arboblari, fan va madaniyat vakillari tomonidan tan olinib, «Turizm Makkasi» deya e'zozlanmokda. Samarqandga kelish baxtiga sazovor bo'lgan, orzulari ruyobga chiqqan xorijiy sayyohlar uni «butun dunyoga yuz ochgan shahar», «Ming bir kechadagi afsona va ertaklar shahri» deya atamokda. «Musulmon dunyosining qimmatbaho durdonasi»ga

dunyoning turli burchaklaridagi dindorlarning ham qiziqishlari cheksiz. Ular uchun Samarqand «Alloh, panohidagi shahar»dir. Oʻrta asr manbalarida ham shaharni shunday deb ataganlar. Samarqand 2750 yillik tarixga ega. Temuriylar sulolasi davrida solingan arxitektura yodgorliklari ahamiyati jihatidan qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rimdagi arxitektura durdonalaridan sira ham qolishmaydi. Qadimiy Samarqandning markazi boʻlgan Registon XV-XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo bunyodkorligining yuksak misollaridan biridir. Maydon uch tomondan Ulugʻbek, Sherdor va Tillakori madrasalari bilan oʻralgan. Registon shaharning asosiy yoʻllari chorrahasida joylashgani uchun aynan shu erda hukmdorlarning Farmonlari xalqqa eʼlon qilingan, savdo avjida boʻlgan.

Samarqand shahrining janubida joylashgan Goʻri Amir maqbarasida (XIV-XV asrlar) Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek kabi Temuriylar sulolasi vakillari dafn etilgan. Temuriylar davrida Samarqand yanada gullab yashnagan edi. Shahar yaqinidagi qadimiy Afrosiyobdan topilgan sopol idishlar, haykalchalar bilan Afrosiyob muzeyida tanishish mumkin. Samarqandda har bir koʻcha, suv xavzasi oʻz tarixiga ega. Ziyoratgox sanaluvchi Shohi Zinda (Tirik Shox) majmuasi Muhammad Rasulullohning amakisining oʻgʻli-Qusam ibn Abbos nomi bilan bogʻliq.

Mustaqillikka erishilgandan soʻng, Oʻzbekiston «ochik eshiklar siyosati»ni joriy qildi va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayoniga faol kirib bordi. Buning yorqin misoli sifatida, Samarqand Respublikaning yirik sayyohlik markaziga aylandi. Turizmning rivojlanishi Oʻzbekiston va Samarqandning qulay geopolitik holati, uning Markaziy Osiyo mintaqasidan oʻtgan «Buyuk Ipak yoʻli» ustida joylashgani, qulay geografik va iqlimiy sharoiti, bu sohaning ravnaqiga xizmat koʻrsata oladigan mutaxassislar va zarur qonuniy bazalarning mavjudligidadir. Xalqlar oʻrtasida doʻstlik, bir-birlarini anglash, tinchlik, hamkorlik va mamlakatda barqarorlikni rivojlantirishda turizmning ahamiyati beqiyosdir. Bularning hammasi sayohlikning xilma-xil shakllarini qayta tiklash va rivojlantirish, xalqaro andozalar asosida xizmat koʻrsatishni yoʻlga qoʻyish, mahalliy xususiyatlar turizmning milliy modelini yaratish uchun qulay imkoniyatlar yaratmokda.

Samarqand shahrida tashqi turizmning rivojlanish holati, yaʼni bugungi kunda xorijiy turistlar tashrifining tahlili, eng koʻp turistlar oqimi Evropa mamlakatlaridan kelishini koʻrsatmoqda 55 %, bunda Butunjahon turistik tashkilotlarining tasnifi boʻyicha sobiq ittifoq mamlakatlari ham Evropa mintaqasiga kiradi. Keyingi oʻrinda Sharqiy Osiyo va Tinch okeaniya mintaqasi mamlakatlari turistlari 22% ni tashkil qilmoqda. Uchinchi oʻrnida esa Oʻrta Sharq mamlakatlaridan 11% va qolgan qismini Janubiy Osiyo mamlakatlaridan 8 %, Amerika mamlakatidan 4 % turistlar kelganligi koʻrsatilmoqda.

Hozirda Samarqandning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

Afrosiyob (eramizdan oldingi VIII asr), Mirzo Ulugʻbek rasadxonasi (1428 y.), SHoxi Zinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr masjidi (XIX asr oʻrtalari), Bibixonim masjidi (1399 y.), Ulugʻbek madrasasi (1417y.), SHerdor madrasasi (1619 y.), Tillakori madarasasi (1647 y.) kabi arxitektura yodgorliklari mavjuddir.



Bundan ko‘rinib turibdiki, horijda yurtimizga bo‘lgan qiziqish tobora yil sayin ortib bormoqda. Bu nafaqat ulkan madaniy va tarixiy merosimiz, noyob va betakror tabiatimiz bilan birga istiqlol yillari mamlakatimizda erishilgan yutuqlar bilan ham bog‘liqdir. Mamlakatimiz Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashganligi hamda O‘zbekiston xududida 4 mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjudligi, ularning bir qismi YUNESKO ning Butunjahon madaniy yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilganligi ko‘plab tarixiy yodgorliklar qayta tamirlanib, san‘at va xalq ijodiyotining an‘anaviy turlarini qayta tiklash va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratilmoqda.

Umuman olganda xalqaro turizm kelajakda mamlakatimizning eng yuqori daromadli tarmoqlaridan biriga aylanadi. Buning uchun mamlakatda barcha imkoniyatlar, siyosiy tinchlik va eng asosiysi, xalqning insonparvarligi va mehmondo‘stligi nixoyatda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Солиев.А. С, Усмонов. М.Р.Туризм географияси. Самарқанд 2005 й.
- 2 . Мирзаев М.А. «Туризм асослари». Маърузалар матни Т.: 2005.

